

SAODAT SOHILI QAYERDA?

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili 2-fakulteti 1-bosqich talabasi
Nurmatova Azizaxon Jahongir qizi
nurmatovaazizaxon32@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning "Saodat sohili" she'rining badiiy va falsafiy tahlili yoritilgan hamda asarning asosiy mazmun-mohiyati o'quvchiga yetkazilgan. Shuningdek, she'rdagi inson hayoti, orzu va baxt izlanishlari bilan bog'liq jihatlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: "Saodat sohili", Aleksandr Faynberg, umrboqiy muhabbat, baxtni izlab, lirik qahramon, falsafiy tahlil, badiiy mahorat, metafora, o'zbek she'riyati, hayot falsafasi.

WHERE IS THE SHORE OF HAPPINESS?

*Uzbekistan State World Languages University
English language faculty 2
Year 1 student Nurmatova Azizaxon Jakhongir qizi
nurmatovaazizaxon32@gmail.com*

Abstract: This article highlights the artistic and philosophical analysis of Aleksandr Faynberg's poem "The Shore of Happiness" ("Saodat Sohili") and conveys the core essence of the work to the reader. Additionally, the aspects related to human life, dreams, and the quest for happiness depicted in the poem are thoroughly explored.

Keywords: "The Shore of Happiness", Aleksandr Faynberg, eternal love, searching for happiness, lyrical hero, philosophical analysis, artistic skill, metaphor, Uzbek poetry, philosophy of life.

ГДЕ БЕРЕГ СЧАСТЬЯ?

*Узбекский Государственный Университет Мировых Языков
Факультет английского языка 2
Студентка 1-го курса Нурматова Азизахон Жахонгировна
nurmatovaazizaxon32@gmail.com*

Аннотация: В данной статье представлен художественный и философский анализ стихотворения Александра Файнберга «Берег счастья» («Saodat sohili»), а также до читателя доносится основная суть произведения.

Кроме того, раскрываются отраженные в стихотворении аспекты, связанные с человеческой жизнью, мечтами и поисками счастья.

Ключевые слова: «Берег счастья», Александр Файнберг, вечная любовь, в поисках счастья, лирический герой, философский анализ, художественное мастерство, метафора, узбекская поэзия, философия жизни.

XX asr o'zbek adabiyoti va she'riyati o'zining janrlar rang-barangligi, uslubiy o'ziga xosligi va chuqur falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Ana shu boy adabiy muhitda o'zining betakror ovozi, samimiy satrlari va lirik jozibasi bilan o'zbek kitobxonlari qalbidan chuqur joy olgan ijodkorlardan biri — O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynbergdir. Shoir ijodida inson qalbining eng nozik qirralari, yashashning ma'nosi, insoniyatning murakkab hayot soqmoqlaridagi izlanishlari va betakror poetik kashfiyotlar bosh mezon hisoblanadi.

Insoniyat yaralibdiki, hamisha bir oliy tuyg'uning, ruhan sokinlik beruvchi muqaddas bir manzilning ilinjida yashaydi. Bu — komillikdagi baxtdir. A.Faynbergning "Saodat sohili" she'ri aynan mana shu fundamental va abadiy mavzuga — "baxtni izlab" yashash motiviga bag'ishlanganligi bilan bugungi kunda ham o'z dolzarbligini aslo yo'qotmagan.

Asrlar qa'ridan miltirar umid
Yurakda og'rigan kabi jarohat-
Qaydadir saodat sohili mavjud,
Unda umrboqiy muhabbat, rohat.

Shoir birinchi satrdayoq "umid" tushunchasiga o'ziga xos poetik ta'rif beradi. Umidning "asrlar qa'ridan miltirashi" shunchaki shaxsiy intilish emas, balki butun insoniyat yaralibdiki, uning qalbida yashab kelayotgan fundamental orzu-istaklardan dalolat beradi. Bu yerda shoir tanlagan "miltirar" fe'li nihoyatda o'rinli qo'llanilgan: u butunlay so'nib qolmagan, ammo juda zaif va olisda porlayotgan nur timsolidir. Odatda umid insonga quvonch va yorug'lik bag'ishlovchi tuyg'u hisoblanadi. Biroq shoirning nazarida umid va jarohat yonma-yon kelmoqda. Erishib bo'lmayotgan, uzoq kutilgan orzu inson qalbida surunkali og'riqqa sabab bo'ladi. Bu o'xshatish lirik qahramonning ruhiy iztiroblarini, baxtni qidirish yo'lidagi charchoqlarini ko'rsatib beradi. Keyingi misralarda lirik qahramonning ichki ishonchi va mutloq ideal dunyoga bo'lgan intilishi aks etgan. "Saodat sohili" bu yerda komillik va xotirjamlik makonidir. Shoir ushbu sirli makonning xususiyatlarini ikkita tushuncha bilan izohlaydi: "umrboqiy muhabbat" va "rohat". Inson hayotining eng oliy mukofoti bo'lgan vaqt sinovlaridan o'tuvchi abadiy tuyg'u hamda ruhan va jismonan erishiladigan eng yuqori taskin – rohat aynan shu sohilda jam bo'lgan. Faynberg ushbu band orqali inson

hayotining eng katta ziddiyatini o'rtaga tashlaydi: qalbimizda shunday ideal maskan borligiga ishonch bor, ammo uning qayerdaligi noma'lumligi yurakda xuddi eski jarohatdek doimiy og'riq uyg'otib turadi.

Men dengizchilardan bu haqda so'rdim.

Dedilar:-Izlama, ko'ngling bolsin to'q.

Barcha dengiz, barcha ummonni ko'rdik,

Saodat sohili yer yuzida yo'q.

Bu bandda shoir "dengizchilar" obrazini shunchaki kasb egalari sifatida emas, balki hayotning past-balandini ko'rgan, dunyo kezib, ulkan tajriba orttirgan "donishmandlar" ramzi sifatida maydonga olib chiqadi. Lirik qahramon o'zi bilmagan haqiqatni dunyo ko'rgan insonlar biladi, deb hisoblaydi. Biroq, dengizchilarning javobi keskin va qat'iy. Bu yerda muallif badiiy inkor usulidan foydalangan. Dunyoning barcha geografik nuqtalarini, barcha dengiz va ummonlarini kezib chiqqan insonlar Yer yuzida bunday sohil mutlaqo mavjud emasligiga guvohlik berishadi.

- Yerda bo'lmasa gar, balki falakda,

Balki yulduzlarning ichida nihon?

Kimdir taskin berdi menga yurakdan:

- Bas, iltijo qilma, yig'lama nolon!

Ushbu to'rtlikda lirik qahramonning ruhiy holati yangi bosqichga ko'tariladi. Dengizchilarning qat'iy inkoridan so'ng, qahramon taslim bo'lmaydi, aksincha, baxtning borligini bildirishga, uni yetib bo'lmas oliy va muqaddas makonlarga joylashga urunadi. "Falak" va "yulduzlar ichida nihon" bo'lgan saodat obrazi – bu insonning erishib bo'lmas orzulari timsolidir. Bandning ikkinchi yarmida esa kutilmagan bir ovoz – "Kimdir" paydo bo'ladi. Bu "kimdir" qahramonga tashqi olamdan emas, balki "yurakdan" taskin beradi. Bu ovozni lirik qahramonning o'z ichki ovozi, aql-idroki yoki unga hamroh bo'lgan ilohiy bir tasalli deb qabul qilish mumkin. Bu sirli ovoz qahramonni ogohlantiradi: "Bas, iltijo qilma, yig'lama nolon!". Bu chaqiriq shunchaki tasalli emas, balki xato yo'ldan qaytarishdir. Bu satrlar orqali Faynberg kitobxonni xayolparastlikdan, hayotni haddan tashqari ideallashtirib yuborishdan ogohlantiradi.

Parqu bulutlardan yuksakda yiroq,

Yulduzlar porlaydi bamisoli cho'g'.

Sayyoralar bisyor osmonda, biroq

Unday sohil yo'qdir, unday sohil yo'q.

Shoir ushbu to'rtlikda "parqu bulutlar", "cho'g' bamisoli porlagan yulduzlar" kabi yorqin o'xshatishlar orqali osmon bag'rini hayratlanarli darajada go'zal tasvirlaydi. Biroq, bu go'zallik lirik qahramonning dardi oldida ojizdir. Osmonda yulduzlar, cheksiz gallaktikalar va "sayyoralar bisyor" bo'lishiga qaramay, ularning hech birida odamzod qidirayotgan o'sha taskin maskani mavjud emas. Falsafiy nuqtai nazardan, ushbu band insoniyatning eng katta miflaridan birini rad etadi: baxt bizdan juda yiroqda, qandaydir erishib bo'lmas yuqori cho'qqilarda yoki sirli olamlarda yashiringan degan qarash asossiz ekanligi isbotlanadi.

Baxtinga imkonim o'z qo'limda-ku
Ijobat aylayman dil xohishini.
- Allo, "Saodat sohili" kafesimi bu?
Stol buyuraman ikki kishilik.

Dengizlar aro kezib, samoviy yuksakliklardan charchab qaytgan lirik qahramon, nihoyat, eng buyuk haqiqatni anglab yetadi: "Baxtinga imkonim o'z qo'limda-ku". Bu satrlar insonning o'z taqdiri, o'z baxti uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga olishini ifodalaydi. Shoir buyuk falsafiy xulosani o'rtaga tashlaydi: Baxt olis yurtlarda yoki cheksiz samoda emas, balki u inson qo'li bilan yarata oladigan darajada yaqin ekanligi ta'kidlanadi. She'rning oxirgi ikki satri esa ajoyib bir zamonaviylik va hayotiylik bag'ishlaydi. Yuksak falsafiy metafora bo'lgan "Saodat sohili" birdaniga oddiy kafega aylanadi. Telefonda aytilgan "Allo, 'Saodat sohili' kafesimi bu?" degan jumla o'quvchini xayolparastlikdan real hayotga qaytaradi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynberg o'zining betakror badiiy mahorati va o'ziga xos lirik uslubi orqali kitobxonni xayolparastlik va asossiz miflardan voz kechib, o'z "saodat sohili"ni shu bugun, shu yerda va o'z qo'li bilan yaratishga da'vat etadi. Asar o'zining umumbashariy g'oyasi bilan har qanday davr o'quvchisi uchun ma'naviy mayoq bo'lib xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qoramamaga qasida [matn]. {she'rlar}/ Aleksandr Faynberg. – T.: «Adabiyot» nashriyoti, 2021. – 92 b.
2. Ishq degani bir qarashda tuyular oson. Aleksandr Faynberg. -T.: «Ijod Nashr» Nashriyoti, 2021. -72 b.
3. "Aleksandr Arkadievich Faynbergning tanlangan she'rlari" –Ivan Petrov tahriri ostida nashriyot: O'zbekiston adabiyot matbuoti, 2005 yil.
4. "Faynberg: A Literary Biography" -Muallif: Elena Ivanova Nashriyot: O'zbekiston adabiyot matbuoti, 2005.
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-sheriyati/aleksandrfaynberg-1939-2009>